



BUXORO AMIRLIGIDA HARBIY ISH VA HARBIY MANSABLAR

Mo'ydinov Muhammadali

Farg'ona Davlat Universiteti Tarix fakulteti

3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro amirligida harbiy mansab va unvonlar, qolaversa Buxoro amirligida amir Nasrulloxon davrida amalga oshirilgan harbiy islohot haqida so'z yuritilgan.

Аннотация: В данной статье рассказывается о воинских должностях и званиях в Бухарском эмирате, а также о военной реформе, проведенной в Бухарском эмирате в период правления Амира Насрулла-хана.

Abstract: This article talks about military positions and titles in the Emirate of Bukhara, as well as the military reform carried out in the Emirate of Bukhara during the reign of Amir Nasrullah Khan.

Kalit so'zlar: Buxoro amirligi, Amir Haydar, Amir Nasrullo, mansab, unvon, saroy, qo'shin.

Ключевые слова: Бухарский эмират, Амир Хайдар, Амир Насрулла, должность, чин, дворец, войско.

Key words: Emirate of Bukhara, Amir Haydar, Amir Nasrullah, position, rank, palace, army.

Kirish. Buxoro amirligida oliy hukmdor amir hisoblanib, uning hokimiyati avlodidan avlodga meros bo'lib o'tgan. Buxoro Amirligi hukmdorlari muntazam qo'shinning bo'lmasligi davlat xavfsizligi uchun fojiali oqibatlarga olib kelishini ashtarxoniyalar qismatidan yaxshi bilib olgan edilar. XVIII asrning ikkinchi yarmida ham qo'shin hamon nomuntazam (qora cherik) bo'lib, u ichki va tashqi xavfni bartaraf etishga qodir emas edi.

Buxoro amirlari XIX asr boshlaridan boshlab muntazam qo'shin tuzishga kirishdilar qo'shin tuzish masalasi Amir Haydar (1800-1826) boshlab bergan va bu muntazam qo'shin "navkariya" deb atalgan. Amir Haydar qo'shinni "navkariya" (muntazam) va "qoracherik" (nomuntazam) qo'shinga bo'lgan. Amir Xaydar jarchilari harbiy harakatkar haqidagi xabarni bozorlarda e'lon qilgan. Bozorlarda "qoracherik"ga olinuvchilar ro'yhati osib qo'yilgan. Harbiy harakatlar davomida va amirlik chegaralaridagi harbiy qal'alarni himoyalashda "qoracherik" dan unumli foydalanilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Mamlakat chegarasini, qalalarni qo'riqlashga safarbar etilgan "qoracherik" azolari malum vaqt shu yerda ushlab turilgan. Mamlakatda tinchlik hukm surgan davrlarda qoracherik o'z uylariga qaytarib yuborilgan. Muntazam qo'shin tuzish bilan bog'liq muammolar Amir Nasrullo davrida to'la yechimini topdi. 1837-yil amir Nasrullo harbiy islohot o'tkazib muntazam qo'shin tuzgan. Islohotga ko'ra sarboz (piyoda askar), navkar (otliq qo'shin) va to'pchilardan iborat 3 turdagi muntazam qo'shin tuziladi. [1:195]

Muhokama. XIX asr o'rtasidagi ma'lumotlarda ko'rsatilishicha, dastlab muntazam qo'shin asosini Buxoro amirligidagi asirlar tashkil etgan. Voqea guvohlarining yozishicha, 1837-yildayoq 1000 dan ortiq asirlardan 800 kishi muntazam piyoda askarlik – sarbozlikga, 250 dan ortiq kishi esa artilleriya qo'shinlari – to'pchilar safiga qabul qilingan. Sarbozlar



yuztalik, elliktalik, yigirma beshtalik va o‘ntalik bo‘linmalarga ajratildi. Muntazam qo‘shin uchun maxsus kiyim-bosh joriy etilgan. Kiyimbosh har 3 yilda almashtirilib turilgan. Muntazam qo‘shinni qurol-yarog‘ bilan ta‘minlash jarayoni bir yildan ortiq davom etgan. Amir Nasrullo muntazam qo‘shinni bir joyda saqlash maqsadida Buxoro shahri chetida 800 uydan iborat „Sarbozxona“ deb atalgan manzilgoh qurdirgan. Muntazam qo‘shinning xizmat muddati cheklanmagan. Sarbozxonada yashayotgan askarlar u yerda hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan ham shug‘ullanganlar. [2:120]

Natijalar. Amir Nasrullo davlat boshlig‘i sifatida amirlik qo‘shini va uning oliy bosh qo‘mondoni hisoblanardi. Undan keyingi o‘rinda vaziri harb (harbiy vazir) turgan. U qo‘shinning Bosh qo‘mondoni sanalgan va topchiboshi deb ham atalgan. Unga barcha harbiy qismlarning sardorlari bo‘ysungan. Qo‘shinda pansodboshi (beshyuzboshi), yuzboshi, ellikboshi (panjaboshi), o‘nboshi (dahboshi) kabi harbiy unvonlar bo‘lgan.

Qal‘a va qo‘rg‘onlardagi harbiy qism to‘qsoba unvonidagi sarkarda tomonidan boshqarilgan. To‘qsoba unvoni o‘sha davr Rossiya harbiy unvonlariga taqqoslaydigan bo‘lsak polk sardori mavqeyiga teng bo‘lgan. Zaruriyat taqozo etganida dodxoh (bir necha polk sardori maqomida) va parvonachi (qo‘shin sarkardasi maqomida) harbiy harakatlarga jalb etilgan. Harbiy harakatlar chog‘ida harbiy qarorgoh boshlig‘i vazifasi naqibga yuklatilgan. Qarorgoh boshlig‘i sifatida u harbiy harakatlarni rejalashtirgan.

Harbiy kuchlarni jang maydonida to‘g‘ri taqsimlanishiga mas‘ul bo‘lgan. Naqiblar harbiy yurish paytida qo‘shinning tuzilishi, qurollanishi va joylashuvi, uning harakatlanishi hamda urush olib borish borasida yetarli bilimga ega bo‘lgan. Qo‘shinning old qismi, orqa qismi va o‘ng hamda chap qanoti, markazi, pistirmalari haqida yetarlicha ma‘lumotga ham ega bo‘lgan. Amirlik qo‘shiniga qozi askar, muhtasiblar va muftiy askarlar ham xizmat qilishgan. Ular ham o‘z mansabi doirasidagi masalalarni hal etgan. Muhtasib harbiylarning shariat qoidalariga qanchalik amal qilayotganliklarini nazorat qilib borgan. Qozi askar, harbiy qismlarda sodir etilgan jinoyat ishlarini javobgar bo‘lgan va ariza, shikoyatlarni ko‘rib chiqqan va ular yuzasidan hukm chiqargan. Muftiy askar harbiylar ustidan qozi askar chiqargan hukmning shariatga qanchalik moslig tekshirib ko‘rgan. Amirlik qo‘shin vaqt-vaqti bilan ko‘rikdan o‘tkazib turilgan. Ko‘rikni amir o‘tkazgan, amir ishtirok eta olmaganida qo‘shibegi o‘tkazgan. Buxoro amirligida qo‘shinning qurol-yarog‘lari sifati past edi. Sababi amirlik askarlari pilti miltiq, to‘pponcha, uzun nayza va egri qilich bilan qurollantirilgan edi. Askarlarni o‘qdan saqlab qolish uchun sovut, temir dubulg‘a bilan ta‘minlangan. [3:88]

XIX asrning o‘rtalaridan boshlab o‘tochar qurol (miltiq va to‘p) larning salmog‘i oshdi. Sarkardalar to‘pponcha va qilichdan tashqari ikki stvolli miltiq bilan qurollandi. Qo‘shinning to‘pchiligi qismi ixtiyorida jami 50 ta to‘p bo‘lgan. To‘plarning sozligi fors mutaxassislari nazoratida bo‘lgan. Kichik kalibrli „xitoychi“ deb atalgan to‘p harbiy harakatlar chog‘ida tuyalarning egarlari ustiga mahkam qilib o‘rnatilgan. Amirlikda qurol-yarog‘ ishlab chiqaruvchi ustaxonalar ham bo‘lgan. To‘plar Samarqand shahridagi ustaxonalarda quyilgan bo‘lsa, porox esa Qarshi shahrida tayyorlangan. Uni ishlab chiqaruvchi hunarmand ustalar dorukash deb atalgan. Harbiy harakatlar chog‘ida qo‘shinni



joylashtirish masalasi sarboz va to'pchilarning har bir o'nlik bo'linmasiga bittadan chodir ajratish orqali hal etilgan.

Qurol-yarog', o'q-dori va jang uchun barcha zarur narsalar manzilga ot-aravalarda yetkazilgan. Amir Nasrullo muntazam qo'shinning ehtiyojlarini, dastlab, kundalik iste'mol mahsulotlari berish orqali qondirgan. Keyinchalik muntazam qo'shin askarlari uchun maosh to'lanadigan bo'ldi. Sarboz va to'pchi askar uchun har uch oyda bir tilla maosh belgilandi. Tabiiyki, yuqori mansabli sarkardalarning maoshlari miqdori balandroq bo'lgan. Masalan, yuzboshi oyiga olti tilla, qorovulbegi to'rt yarim tilla, panjaboshi (ellikboshi) sakson besh tanga, bosh sarkarda esa ikki ming tilla maosh olgan. Bulardan tashqari, harbiy harakatlar chog'ida mansab va unvonidan qat'i nazar har bir qatnashchiga kuniga bir tilla berilgan. Bundanxam tashqari, oddiy askar har uch kun uchun bir tanga, o'nboshi har ikki kun uchun bir tanga, qorovulbegi kuniga ikki tanga va yuzboshi esa to'rt tanga qo'shimcha haq olardi. Ayni paytda, muntazam qo'shin askarlari xizmat davomida turli soliq va majburiyatlardan ozod etilgan. Jangda halok bo'lgan askarlar, shuningdek, xizmat qilayotgan askarning vafot etgan oila a'zolarini dafn etishda ma'lum miqdorda pul va kafanlik berilgan. [4:548]

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytishimiz kerakki. Buxoro amirligi davrida xarbiy islohotlarga bo'lgan talab va ehtiyojlar amirlarning shaxsiy dunyoqarashlariga qarab olib borilgan. Amir Nasrilloxon olib borgan islohotlar malum muddat amirlik harbiy salohiyatini oshirib berdi. Amirlikda boshqa sohalarga qaraganda harbiy sohada olib borilgan islohotlar ancha samarali kechdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shodiev J.M “Buxoro amirligining tashkil topishi va davlat tuzumi” T.2008
2. Bobobekov H. “Qo'qon tarixi” T.1996
3. Shodiev J.M “Buxoro amirligining tashkil topishi va davlat tuzumi” T.,2008.
4. Ravshanov P. ” Shahrizabz tarixi (Eng qadim davrlardan XX asrning I choragigacha”) T., 2011.